

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

NAMANGAN MUXANDISLIK-
PEDAGOGIKA INSTITUTI

«KASB TA'LIMI» FAKUL'TETI

«Kasb ta'limi (Informatika va AT)» kafedrası

Ochiq kodli dasturiy ta'minot

fanidan tajriba ishlarini bajarish bo'yicha

Uslubiy ko'rsatma

Namangan-2017

«Ochiq kodli dasturiy ta'minot» fanidan tayyorlangan uslubiy ko'rsatma 5111000 –Kasb ta'limi (Informatika va axborot texnologiyalari) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan talabalar va fan o'qituvchilari hamda mustaqil o'rganuvchilar foydalanishlari mumkin. Ushbu uslubiy ko'rsatma « Ochiq kodli dasturiy ta'minot» fanidan tajriba ishlarni bajarish uchun mo'ljallangan bo'lib, unda tajriba ishlarni bajarish namunalari va topshiriqlar berilgan.

Uslubiy ko'rsatma na'munaviy o'quv dasturi asosida tuzilgan.

Muallif: Kasb ta'limi (Informatika va AT) kafedrasida assistenti U.G'oyipov

Taqrizchilar - Raximov R.- Namangan sanoat KXX, «Informatika» kafedrasida maxsus fan o'qituvchisi

-P.Karimov. – NamMPI, Kasb ta'limi (Informatika va AT) kafedrasida dotsenti

Uslubiy ko'rsatma «Kasb ta'limi (Informatika va AT)» kafedrasining 2017 yil “___” _____ dagi “___” - son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakul'tet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

(Bayonnoma №_____ «___» _____ 2017 yil)

Uslubiy ko'rsatma NamMPI «Kasb ta'limi» fakulteti ilmiy-uslubiy kengashida muxokama qilingan va ko'rib chiqish uchun institut ilmiy kengashiga tavsiya etilgan.

(Bayonnoma №_____ «___» _____ 2017 yil)

Uslubiy ko'rsatma NamMPI ilmiy-uslubiy kengashida muxokama qilingan va chop etishga tavsiya etilgan.

(Bayonnoma №_____ «___» _____ 2017 yil)

1-tajriba ishi

Mavzu: Linux (Ubuntu 15.04) tizimini o`rnatish va uning ish muhiti bilan tanishish

Ishning maqsadi: Talabalarda Linux tizimini o`rnatish bo`yicha malaka va ko`nikmalarni shakllantirish. Uning ishchi muhiti bilan tanishtirish

Nazariy ma'lumotlar

Linux tizimi haqida

Linux operatsion tizimi haqida gapirilganda uni Nan Linux, ba'zida GNU/Linux deb nomlashadi. Aslini olganda Linux bu operatsion tizimning yadrosidir. Ushbu operatsion tizimni ishlashini ta'minlovchi ko'pgina dasturlar GNU dasturiy ta'minoti hisoblanadi. GNU bu Unix emas degan ma'noni beradi va u Linux uchun foydalanish mumkin bo'lgan barcha dasturiy ta'minot, tahrirlovchi dasturlar, kompilyatorlar, ishlab chiqarish vositalari, utilitlar, paketlar va boshqa barcha yangiliklar mutlaqo bepul bo'lishi kerak deganidir. Shunday ekan operatsion tizimni GNU/Linux deb nomlash to'g'riroq bo'ladi, Linuks termini esa uning yadrosiga nisbatan ishlatish mumkin. Linuks operatsion tizimi boshqa operatsion tizimlar kabi uzoq o'tmishga ega bo'lmasada, ochiq tizimli operatsion tizimlar ichida eng ommabopi hisoblanadi. EHM ning birinchi davrida operatsion tizim hali ishlab chiqilmagan davrda katta va qimmat hisoblash mashinalarini faqatgina bitta odam(foydalanuvchi) foydalana olgan. Unga misol qilib, IBM 701, Fortran Monitor System uchun yaratilgan General Motors Operating System(GMOS) va IBM 709 uchun ishlab chiqilgan North American Aviation ni keltirishimiz mumkin. 1960 yilda Massachusetts texnologiya universitetida GE-645 mashinasi uchun eksperemental operatsion tizim - Multics (Multiplexed Information and Computing Service) yaratildi. Ushbu operatsion tizimni yaratuvchilaridan biri AT&T kompaniyasi loyihadan ajralib chiqib, 1970 yilda o'zining shaxsiy Unix operatsion tizimini yaratdi va uni ishlashi uchun C dasturlash tilidan foydalanadi. Yigirma yildan so'ng Endru Tannenbaum shaxsiy kompyuterlarda ishlovchi Unix ning MINIX (minimal Unix) deb nomlanuvchi mikroyadroli versiyasini ishlab chiqadi. Ochiq kodli MINIX operatsion tizimi Xelsinki universiteti talabasi Linus Torvalds ni ilxomlantirib yubordi va 1990 yillar boshida Linux yadrosini yaratishga olib keldi. 1991 yil 25 avgusta USENET nomli konferenstiyada Linus


Torvalds o'zining Linux nomli operatsion tizimini e'lon qilib, bu unchalik katta loyiha emasligini ta'kidlab o'tdi. Bir necha oylardan so'ng Tarvalds barchani bu loyiha ustida ishlashga taklif etdi. Shundan so'ng C dasturlash tilidan xabardor juda ko'p foydalanuvchilar o'z kodlarini jo'natib, operatsion tizimni mukammal ko'rinishga olib kelishga xarakat qilishdi. Operatsion tizimning ishlovchi yaxshi varianti 1995 yilda shakllandi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, 1997 yilga borib 6 millinga yaqin shaxsiy kompyuter va serverlarga GNU/Linux operatsion tizimi o'rnatildi. Bu operatsion tizimni foydalanuvchilarini aniq hisoblab bo'lmaydi, chunki bu operatsion tizimni istalgan foydalanuvchi, istalgan kompyuteriga o'rnatish mumkin, eng asosiysi hech qayerda ro'yxatdan o'tish shart emas. Hozirgi kunda Linux operatsion tizimini asosan server kompyuterlariga o'rnatishmoqda. Chunki bu tizim xavfsizlik jihatidan juda kuchli hisoblanadi. Bu tizimni juda ko'p distributivlari(Mandriva, Gentoo, Redhat,..) mavjud bo'lib, ularning versiyalari ham juda tez suratda yangilanib bormoqda.

1-topshiriq. *VirtualBox dasturi yordamida Linux(Ubuntu) tizimini o'rnating*

Bajarish: Dastlab kompyuterga Virtual box dasturini o`rnatamiz. Oracle VirtualBox dasturini ishga tushiramiz: Пуск ▸ Программы ▸ Oracle VM VirtualBox ▸ Oracle VM VirtualBox.


Virtual mashina yaratamiz: Машина ▸ Создать (yoki Ctrl+N tugmalar kombinatsiyasidan foydalanamiz).

Имя: Ubuntu-01. Тип: Linux. Версия: Ubuntu (32 bit). Next tugmasini bosiladi (Далее) (1-rasm).




1-rasm

Tezkor хотiradan 1024 MB joy ajratiladi (Bunda sizning tezkor хотirangiz 2048 dan ortiq bo`lishi talab etiladi). Next (Далее) tugmasi bosiladi (2-rasm).




2-rasm.

Выберите жёсткий диск oynasidan Создать новый виртуальный жёсткий диск bo`limini belgilanadi. Create (Создать) tugmasi bosiladi (3-rasm).




3-rasm

Yangi virtual disk tipi ko`rsatiladi.: VDI (VirtualBox Disk Image). Next (Далее) tugmasi bosiladi (4-rasm).




4-rasm

Saqlash formati ko`rsatiladi: Динамический виртуальный жёсткий диск Next (Далее) tugmasi bosiladi (5-rasm).




5-rasm

Virtual mashina barcha ma`lumotlari uchun qattiq diskdan joy ajratiladi. Ubuntu-01 nomini ko`rsatiladi va virtual disk maksimal razmerini o`rnatiladi: 12 ГБ. Create (Создать) tugmasi bosiladi (рис. 6).



6-rasm


Virtual mashina yaratiladi va Oracle VirtualBox oynasida uning nomi paydo bo`ladi (7-rasm).



7-rasm


Agar o`rnatish bo`yicha sozlanmalarni amalga oshirish talab etilsa Настроить button bosiladi. Paydo bo`lgan oynada turli parametrlarni o`zgartirish mumkin bo`ladi. Masalan, tezkor xotira, videoxotira va doimiy xotira uchun ajratilgan joy yoki yuklanish turlari kabi.

VirtualBox oynasida Запустить button bosiladi (9-rasm).




9-rasm

Xosil bo'lgan darchada siz saqlab olgan ISO kengaytmali yuklanuvchi disk ko'rsatilib, Продолжить tugmasi bosiladi (10-rasm).




10-rasm

Biro z yuklanishda so'ng ekranda quyidagi oyna ko'rinishi paydo bo'ladi. Undan Русский ni tanlab Установить Ubuntu tugmasini bosiladi (11-rasm).




11-rasm

Navbatdagi darchadan (12-rasm) Продолжить tugmasi bosiladi.




12-rasm

Стереть диск и установить Ubuntu turini tanlanadi va Установить сейчас tugmasi bosiladi (13-rasm).




13-rasm

Sichqoncha yordamisa vaqt hududini o`rnatib Продолжить tugmasi bosiladi(14-rasm).




14-rasm

Klaviatura turi Русская tanlanadi va Продолжить tugmasi bosiladi (15-rasm).




15-rasm

User1 nomli foydalanuvchi nomi kiritiladi, comp1 nomi bilan kompyuter nomi, foydalanuvchi nomiga user1 va iiki marta parol kiritiladi (16-rasm). Parol sifatida lotin alfavitining katta va kichik xarflari, turli belgilarni kiritish mumkin. Продолжить tugmasi bosiladi(16-rasm).




16-rasm

О`rnatish jarayoni boshlanadi(17-rasm).




17-rasm

О`rnatish yakunlangach Перезагрузить tugmasi bosiladi(18-rasim).



18-rasm

Aagar ekranda o`rnatuvchi diskni o`cherish maslahati paydo bo`lsa, virtual mashina menyusidan Устройства ▶ Приводы оптических дисков ▶ Изъять диск из привода buyrug`ini tanlanadi va Enter tugmasini bosiladi. Qayta yuklanishdan so`ng quyidagi oyna hosil bo`ladi. User1 foydalanuvchisiga tegishli parolni teriladi va Enter tugmasi bosiladi(19-rasm).



19-rasm

Полезные настройки системы

Пожалуй, первое, что стоит сделать сразу после установки Ubuntu, это вернуть классический режим отображения меню приложений. Ранее меню всегда показывалось в окне самого приложения, но в новых версиях Ubuntu его по умолчанию переместили в верхнюю панель рабочего стола (это позволяет экономить место на маленьких экранах планшетных компьютеров).

Чтобы установить традиционный режим отображения меню приложений, щёлкнем левой кнопкой мыши по изображению ключа с шестерёнкой в левой части рабочего стола Ubuntu (всплывающая подсказка Параметры системы, рис. 25) и в раскрывшемся окне выберем иконку Оформление (иногда переводят немного по-другому, например, Внешний вид).




Рис. 25. Настройка оформления системы
 Затем перейдём на вкладку Режим (рис. 26) и в разделе Показывать меню для окна выберем опцию В заголовке окна.

Tajriba ishi topshiriqlari

1. Linux (Masalan, Ubuntu 16.04)tizimini o`rnating.
2. Linux tizimi ish muhitini o`rganing.
3. Ish stoli va boshqa sozlanmalarni bajaring.
4. Bajarilagn ishlar bno`yicha hisobot tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ryabsev M.A., Xakimov U.B. “Web dizayn san’ati”. Oq’uv qo’llanma. «Faylasuflar» nashriyoti. Toshkent – 2014
2. Zakirova T.A., Ibragimov E. U., Masharipov A.K., Musayeva M.A. “Web–dasturlash”. Darslik. Toshkent–2010

3. Internet saytlari

www.lesson.itportal.uz

www.ziyonet.uz

www.google.com